

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARINI ISHLAB CHIQISHDA NOTARIAL PALATA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH

Munavvarova Naimaxon Zoxidulaevna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: naima.uz@mail.ru

telefon: 90-994-55-35

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22723762>

Qabul qilindi: 4-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 11-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 12-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Notarial palatasi ishtirokining amaldagi tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Notarial palataning qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish vakolati bilan uni norma ijodkorligi jarayoniga jalb etish mexanizmi o‘rtasidagi tafovut ochib berilgan. Ushbu jarayonda Palata ishtirokining maslahatlashuv bilan cheklanganligi, loyihalarni ishlab chiqish tashabbusi bilan chiqish, hududiy amaliyot ma’lumotlarini umumlashtirish, takliflarga munosabat bildirish va qabul qilingan normalarni keyingi baholash tartiblarining yetarlicha institutsionallashtirilmaganligi asosiy muammo sifatida belgilangan. Tizimli, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy va funktsional usullar asosida Palatani notarial faoliyatga bevosita daxldor normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini bo‘yicha majburiy maslahatlashuv sub’ekti sifatida belgilash, uni Yagona elektron tizimga maxsus ishtirokchi maqomida kiritish, “tartibga solish tsikli” modeli va Palataning normativ ta’sir xulosasini joriy etish taklif qilingan.

Kalit so‘zlar:

notariat, Notarial palata, norma ijodkorligi, normativ-huquqiy hujjat loyihasi, manfaatdor tomonlar ishtiroki, huquqni qo‘llash amaliyoti, mutaxassislar muhokamasi, tartibga solish ta’sirini baholash, huquqiy monitoring.

Huquqiy davlatda normativ-huquqiy hujjatning sifati faqat uning yuridik texnika talablariga muvofiqligi bilan emas, balki norma tartibga soladigan munosabatlarning amaliyotda qanday kechishini qanchalik to‘g‘ri aks ettirishi bilan ham belgilanadi. Notariat sohasida bu talab alohida ahamiyatga ega. Chunki notarius har kuni mulk huquqi, meros, oilaviy munosabatlar, korporativ qarorlar, ishonchnoma va majburiyatlarni rasmiylashtirishda fuqarolar hamda yuridik shaxslar bilan bevosita ishlaydi. Shu sababli notarial amaliyot qonun normasining aniqligi, axborot tizimlarining o‘zaro ishlashi va ma’muriy tartib-taomillarning amaliy samaradorligini erta aniqlaydigan o‘ziga xos “huquqiy sensor” vazifasini bajaradi.

“Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 22⁵-moddasidagi “qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish ... takliflar ishlab chiqish” vazifasi Palataning norma ijodkorligiga mazmunan daxldor vakolatini anglatadi. Statistik ma’lumotlarni to‘plash, yagona notarial amaliyot choralari ko‘rish va uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish ham normativ-huquqiy hujjat (NHH) loyihasi sifatini oshiradigan empirik hamda ekspert resurslarni Palata ixtiyorida jamlaydi. Davlat organlari bilan hamkorlik qilish haqidagi norma esa tashkiliy aloqa uchun umumiy huquqiy asos yaratadi [1].

Shu bilan birga, mazkur normalarning aksariyati natijaga yo'naltirilgan vazifalarni belgilaydi, lekin jarayonni tartibga solmaydi. Qaysi NHH loyihalari Palataga majburiy yuborilishi, u qaysi bosqichdan jalb qilinishi, xulosa berish muddati, xulosaning huquqiy ahamiyati, rad etilgan takliflarga javob berish hamda hududiy boshqarmalar fikrini yig'ish tartibi aniq emas. Shu bois qonun bilan berilgan "taklif ishlab chiqish" imkoniyati amaliyotda ishlab chiquvchining tashabbusi yoki muayyan topshiriq mazmuniga bog'liq bo'lib qolishi mumkin.

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun mutaxassislar muhokamasini tegishli ilmiy-tadqiqot muassasalari va tarmoq vakillari ishtirokida o'tkazishni nazarda tutadi, muhokama ishtirokchilari NHH loyihasi matni bilan oldindan tanishtirilishi shart [2]. Notarial palata tarmoqning institutsional vakili sifatida bunday muhokamaning tabiiy ishtirokchisidir. Biroq umumiy norma uni notariatga daxldor har bir NHH loyihasi bo'yicha majburiy adresat sifatida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmaydi. Ochiq jamoatchilik muhokamasida ishtirok etish esa kasbiy ekspertizani alohida protsessual bosqich sifatida kafolatlamaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining normativ-huquqiy hujjatlar NHH loyihalarini tayyorlashda ishtirok etishiga oid umumiy qoidalar ularga tashabbus bilan chiqish, taklif va NHH loyihalarini tayyorlash, jamoatchilik ekspertizasida ishtirok etish imkonini beradi [5]. Bu demokratik asos muhim, ammo Notarial palataning oddiy nodavlat tashkilotdan farqli, qonun bilan berilgan majburiy a'zolikka, yagona hududiy tarmoqqa va notarial amaliyot ma'lumotlariga ega ekanini to'liq hisobga olmaydi. Shu sababli Palataning ishtiroki faqat umumiy fuqarolik jamiyati mexanizmi bilan cheklanmasligi lozim.

Prezidentning 2025 yil 9 sentyabrdagi PQ-280-son qarori bilan notarial harakatlar bo'yicha ma'muriy reglamentlarni xatlovdan o'tkazish va yangilangan NHH loyihalarini ishlab chiqishda Adliya vazirligi, Notarial palata hamda manfaatdor vazirlik va idoralar mas'ul etib belgilangan [3]. Ushbu yondashuv Palatani tayyor hujjatga fikr bildiruvchi emas, balki NHH loyihasini birgalikda ishlab chiquvchi sub'ekt sifatida tan oladi. Ammo bunday ishtirok alohida qaror topshirig'iga emas, notarial faoliyatga daxldor barcha NHH loyihalari uchun umumiy protsessual qoidaga aylantirilishi maqsadga muvofiq.

Prezidentning 2024 yil 24 maydagi PF-80-son Farmoni norma ijodkorligi jarayonlarini, shu jumladan NHH loyihasini ishlab chiqish, kelishish, ekspertiza, tartibga solish ta'sirini baholash, jamoatchilik muhokamasi va qabul qilishga doir statistikani Yagona elektron portal orqali raqamlashtirish vazifasini belgiladi [4]. Bu islohot Notarial palata ishtirokini ham raqamli iz qoldiradigan, muddatlari kuzatiladigan va natijasi o'lchanadigan shaklga o'tkazish uchun texnik-huquqiy imkoniyat yaratadi.

OECD yondashuviga ko'ra, tartibga solish ta'sir ko'rsatadigan shaxslarni qoidalarni ishlab chiqishga jalb etish hukumatga dastlabki farazlarni tekshirish, muqobil yechimlarni topish va normaning ta'sirini yaxshiroq tushunish imkonini beradi; fikri eshitilgan ishtirokchilar esa qoidalarni adolatli va ehtiyojlarga mos deb qabul qilishga ko'proq moyil bo'ladi [6]. Manfaatdor tomonlar ishtiroki faqat yangi norma tayyorlanayotganda emas, balki tartibga solish tsiklining keyingi bosqichlarida, jumladan amaldagi normalarni baholash va ustuvorlashtirishda ham ta'minlanishi lozim [7].

Xalqaro notariat ittifoqi printsiplarida notarial palatalar kasbni tashkil etish, uni ifodalash, manfaatlarini himoya qilish va notariatning ijtimoiy funksiyasini ta'minlashga mas'ul tuzilma sifatida e'tirof etilgan [8]. Germaniya Federal notarial palatasi federal darajadagi qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etadi va qonun loyihalari yuzasidan kasbiy pozitsiyalarni taqdim etadi [9]. Bu tajriba kasbiy palataning mustaqilligi davlat bilan muloqotni istisno etmasligini, aksincha, aniq vakolat va ochiq tartiblar orqali sifatli normalarga xizmat qilishini ko'rsatadi.

O'zbekiston qonunchiligi va xorijiy davlatlar amaliyotining tahlili Notarial palataning NHH loyihalarini ishlab chiqishda ishtirokini yangi modelini taklif etish imkonini berdi. Bunda "erta ishtirok – dalilga asoslangan xulosa – asoslangan javob – keyingi baholash" to'rtligiga tayanishi taklif etiladi. Palataga mutlaq veto huquqi berish yoki davlat organining norma ijodkorligi vakolatini cheklash maqsadga muvofiq emas. Asosiy maqsad – ishlab chiquvchining qaror qabul qilish huquqini saqlagan holda, professional amaliyot ma'lumoti yo'qolib ketmasligini va rad etilgan muhim takliflar bo'yicha asoslar ochiq bo'lishini ta'minlash.

Birinchidan, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunda notarial faoliyatga bevosita ta‘sir qiluvchi NHH loyihalari bo‘yicha Notarial palataning xulosasini olish majburiyligi belgilash. “Bevosita ta‘sir” mezoniga notarial harakatlarning turi, mazmuni yoki tartibi; notariusning huquq va majburiyatlari; notarial hujjatning yuridik kuchi; reestr va axborot almashinuvi; tarif, to‘lov va sug‘urta; kasbga kirish, etika, monitoring va javobgarlikka daxldor normalar kiritilishi mumkin.

Ikkinchidan, Palata NHH loyihasi kontsepsiyasi tayyorlanayotgan paytdan jalb qilish. Agar kontsepsiya talab etilmasa, ishlab chiquvchi texnik topshiriq yoki muammo bayonini Palataga yuborishi lozim. Palata markaziy apparati hududiy boshqarmalarga va zarur mutaxassislarga qisqa so‘rov yuborib, belgilangan muddatda yagona pozitsiya shakllantiradi. Shoshilinch NHH loyihalari uchun qisqartirilgan, odatdagi NHH loyihalari uchun esa yetarli tahlil imkonini beruvchi muddatlar belgilanadi.

Uchinchidan, “Notarial palataning normativ ta‘sir xulosasi” standart shakli joriy etish. Xulosa kamida: tartibga solinayotgan muammo; amaldagi notarial amaliyot; huquqiy kolliziyalar; fuqarolar va biznes uchun xarajat; notarius ish jarayoniga ta‘sir; raqamli tizimlarga talab; korruptsiya va suiiste‘mol xavfi; muqobil yechim; o‘tish davri va monitoring ko‘rsatkichlarini qamrab olishi kerak. Bu hujjat davlat huquqiy ekspertizasini almashtirmaydi, balki uni sohaviy dalillar bilan to‘ldiradi.

To‘rtinchidan, ishlab chiquvchi Palata takliflari bo‘yicha “kelishmovchiliklar jadvali”ni shakllantirish. Qabul qilingan takliflar matnda, qabul qilinmaganlari esa huquqiy, moliyaviy yoki tashkiliy sabablar bilan izohlanishi kerak. Palata xulosasining majburiyligi uning har bir taklifi majburiy qabul qilinishi degani emas; majburiylik — xulosani so‘rash, ko‘rib chiqish va asoslangan munosabat bildirish majburiyatidir.

Beshinchidan, Palataga Yagona elektron tizimda maxsus “kasbiy palata” maqomini berish. Tizim notariatga aloqador kalit sohalar bo‘yicha NHH loyihalarini avtomatik ravishda Palataga yo‘naltirishi, versiyalar tarixini, takliflarning qabul qilinishi yoki rad etilishini, muddatlarni va yakuniy xulosani saqlashi lozim. Bu jarayon shaffofligini oshiradi va alohida xat almashinuviga bog‘liqlikni kamaytiradi.

Oltingichidan, Palata huzurida doimiy Norma ijodkorligi va huquqiy amaliyot kengashini tashkil etish mumkin. Uning tarkibiga Palata xodimlari, amaliyotchi notariuslar, xususiy huquq olimlari, axborot texnologiyalari vakillari hamda iste‘molchilar huquqlarini himoya qiluvchi ekspertlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish uchun a‘zolar deklaratsiyasi, masaladan chetlashish va xulosalarni e‘lon qilish qoidalari belgilanishi zarur.

Yettinchidan, qabul qilingan muhim normalar bo‘yicha 6 va 12 oydan keyin qo‘shma monitoring o‘tkazish. Palata notarial amaliyot, takroriy murojaatlar, rad etishlar, texnik xatolar va hududiy farqlar haqidagi ma‘lumotlarni umumlashtiradi; Adliya vazirligi esa qonuniylik, davlat siyosati va ma‘muriy natijalar nuqtai nazaridan baholaydi. Shu tariqa Palataning monitoringi va uslubiy tavsiyalari Adliya vazirligining nazorati va rasmiy huquqiy tushuntirish vakolatini takrorlamaydi, balki uni amaliyot ma‘lumotlari bilan ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Notarial palataning amaldagi huquqiy maqomi unga norma ijodkorligida ishtirok etish uchun yetarli asos bo‘ladi. Palata huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganadi, statistik ma‘lumotlarni jamlaydi, yagona amaliyot va uslubiy yordamni ta‘minlaydi hamda davlat organlari bilan hamkorlik qiladi. Muammo vakolatning mavjud emasligida emas, balki uni amalga oshirishning barqaror protsessual kafolatlari yetarlicha aniq emasligidadir.

Palatani notarial faoliyatga bevosita daxldor NHH loyihalari bo‘yicha majburiy maslahatlashuv sub‘ekti sifatida belgilash, uni kontsepsiya bosqichidan jalb qilish, standart normativ ta‘sir xulosasini va kelishmovchiliklar jadvalini joriy etish, Yagona elektron tizimda maxsus maqom berish hamda qabuldan keyingi qo‘shma monitoringni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Bunday model davlatning qaror qabul qilish vakolatini saqlaydi, biroq qarorning daliliy bazasini kengaytiradi, huquqiy kolliziya va ijro xatolarini kamaytiradi, notarial amaliyotning bir xilligini hamda fuqarolar huquqlarining ishonchli himoyasini kuchaytiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi 26.12.1996 yildagi 343-I-sonli Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/54458>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi 20.04.2021 yildagi O'RQ-682-sonli Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/5378966>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Notariat institutini yanada rivojlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 09.09.2025 yildagi PQ-280-sonli Qarori. URL: <https://lex.uz/docs/7722035>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi 24.05.2024 yildagi PF-80-sonli Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/6937312>.
5. Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. URL: <https://gov.uz/uz/advice/624/document/2745>.
6. OECD. Stakeholder engagement in regulation // Government at a Glance 2025. Paris: OECD Publishing, 2025. URL: https://www.oecd.org/en/publications/government-at-a-glance-2025_0efd0bcd-en/full-report/stakeholder-engagement-in-regulation_9452838f.html.
7. OECD. Best Practice Principles on Stakeholder Engagement in Regulatory Policy. GOV/RPC(2016)23/REV2. Paris, 2017. URL: <https://one.oecd.org/document/GOV/RPC%282016%2923/REV2/en/pdf>.
8. International Union of Notaries (UINL). Deontology and Rules of Organization for Notariats. Articles 6–8, 24. URL: <https://uinl.org/fundamental-principles/deontology-and-rules-of-organization-for-notariats/>
9. Bundesnotarkammer. Aufgaben und Mitwirkung in Gesetzgebungsverfahren. URL: <https://www.bundesnotarkammer.de/>